

## 5- MA’RUZA. Molekula tuzilishi va kimyoviy bog`lanish

**Reja:**

1. Kimyoviy elementlarning valentligi va uning turlicha talqin etilishi.
2. Doimiy va o’zgaruvchan valentlik. Oksidlanish darajasi to’g`risida tushuncha.
3. Kimyoviy bog`lanishning miqdoriy tavsiflari: bog`lanish tartibi, bog`lanish energiyasi, bog` uzunligi, valent burchagi. Bog`ning qutbliligi (ionlilik darajasi). Kimyoviy ta’sirlashuv va kimyoviy bog`ning hosil bo’lish mexanizmi.
4. Qoplanish tiplari ( $\sigma$ ,  $\pi$ ). Qutblanish effektivligini simmetriyaga, atom orbitalining nisbiy energiyasiga yadrolar orasidagi masofaga bog`liqligi. Qo’sh bog`lar.
5. Ion bog`lanish va uning xossalari.
6. Vodorod bog`, uning tabiatи va miqdoriy tavsifi.
7. Metall bog`lanish va uning ahamiyati.
8. Molekulalararo ta’sirlashuv.

**Tayanch iboralar:** Valentlik. Doimiy va o’zgaruvchan valentlik. Ionlar zaryadlari, kationlar, anionlar. Oksidlanish darajasi, shartli elektr zaryadlari, ionlarda oksadlanish darajasi. Bog`lanish tartibi, bog`lanish energiyasi, bog` uzunligi. Valent burchak.  $\sigma$  va  $\pi$  bog`lar. Ion bog`lanish. Yo’naluvchanlik. To’yinuvchanlik. Karraliylik. Dipol momenti. Bog`lovchi va bo’shashtiruvchi orbitallar. Bog`lanish tartibi. Energetik diagramma. Van – der – Vaals kuchlari. Vodorod bog`, xossalari.

Kimyoviy bog`lanish nazariyasini hozirgi zamon kimyosining markaziy muammolaridan biridir. Modda tarkibidagi atomlarning ta’sir etish tabiatini bilmasdan turib, kimyoviy birikmalarning xilma-xilligini sababini, ularning hosil bo’lish mexanizmini, tarkibini, tuzilishi va reakstiyaga kirishish qobiliyatlarini tushinish mumkin emas. Hozirgi zamon tekshirish usullari tajribada moddalardagi atom yadrolarining fazoviy joylanishini aniqlash imkonini beradi. Atom yadrolarining fazoviy joylanishi elektronlarning ma’lum zichligiga to’g’ri keladi. Atomlardan molekulalar hosil bo’lishida elektron zichlik o’zgaradi. Moddadagi elektron zichlikning taqsimlanish xarakteriga qarab kimyoviy bog`lanish 3 ta asosiy tipga bo’linadi: ion bog`lanish, kovalent bog`lanish va metall bog`lanish. Kimyoviy bog`lanishning 2-chi darajadagi ko’rinishlari qatoriga: molekulalaro bog`lanish (Van-der Vaals kuchlari bilan xarakterlangan bog`lanish) hamda vodorod bog`lanish kirdi. Kimyoviy bog`lanish valentlik bilan xarakterlanadi.

Valentlik termini (atamasi) kimyoga 1853 yilda ingliz kimyogar-organigi Franklend tomonidan kimyoviy birikmalaragi element atomlarining miqdoriy nisbatlarini asoslash uchun kiritilgan.

Valentlik ta’limotining rivojlanishi ko’p jihatdan D. I. Mendeleevning davriy qonuning ochilishi bilan bog`liqidir. D.I. Mendeleev element valentligi va uning davriy sistemadagi o’rni orasidagi bog`liqlikni aniqladi. Elementlarning vodorod hamda kislород bilan birikmalarida o’zgaruvchan valentlik namoyon qilish tushunchasini kiritdi. Atom va molekulalarning tuzilishi to’g`risidagi ta’limot valentlikni elektron nazariyasini ishlab chiqilishiga imkoniyat yaratdi.

Bir valentli elementlar.- deb ikki elementli birikmada hamma vaqt boshqa elementning bitta atomi bilan birikkan elementlarga aytildi. Bir valentli elementga vodorod (N) elementi misol bo’ladi. Shuning uchun elementning valentlik stexiometriyasi biror elementning bitta atomi vodorodning nechta atomi bilan bog`langanligini ko’rsatadi.

Masalan: HCl da xlor bir valentli, N<sub>2</sub>O da kislород 2 valentli, NH<sub>3</sub> da azot 3 valentli. Hamma elementlar uchun vodorodli birikmalar ma’lum emas, ammo deyarli hamma elementlar kislород bilan birikma hisil qiladi. Kislород hamma vakt stexiometrik 2 valentli hisoblanadi, kislородli birikmalar tarkibiga qarab, asosan boshqa elementlarning valentligini topish mumkin.


Suvdagи vodorod atomiga formal ravishda boshqa elementlarni almashtirib oksidlarni olish mumkin. Masalan: N<sub>2</sub>O va Na<sub>2</sub>O yoki N<sub>2</sub>O

va SaO formulalarini solishtirish natijasida natriyning bir, kalstiyning esa 2 valentli ekanligiga xulosa kilish mumkin.


Shunday qilib, elementning valentlik stexiometriyasi biror elementning bitta atomi bilan birikkan va almashgan vodorod atomlari soni bilan aniq lanadi. Kupchilik elementlar bir qancha stexiometrik valentlikni namoyon qildilar, ya’ni boshqa biror element atomlari bilan har xil stexiometrik tarkibli bir qancha birikmalar hosil qiladi. Bunday birikmalarni nomlash uchun element nomlariga qavs ichida rim raqamlari bilan (+ yoki -)siz valentliklar yoki stexiometrik tarkibi ko’rsatiladi.

Masalan: Cu<sub>2</sub>O-mis (I) oksidi, CuO-mis (II) oksidi, SO<sub>2</sub> -oltingugurt (IV) oksidi, SO<sub>3</sub>-oltingugurt (VI) oksidi va h. k.

Kimyoviy element ikki elementli birikmalarda elementlarning valentliklari bilan eyishgan prinstipi asosida osonlik bilan oddiy arifmetik usulda 2 - chi element valentligini topish mumkin. Vodorodni bir valentligini bilgan holda quyidagi birikmalarda boshqa element valentliklarni topish mumkin:



Shunga o'xshash kislородни II valentligini bilgan holda:



Agar elementlarning stexiometrik valentliklari ma'lum bo'lsa ularning kimyoviy formularini tuzish mumkin:

MASALAN: As (V), O (II) va S (VI), O (II) valentli bo'lsa

10 (=2:5) As<sub>2</sub>O<sub>5</sub>      va 6 (=1:3) SO<sub>3</sub>

Shuni aytish lozimki stexiometrik valentlik ham, summar formula ham birikmada kimyoviy bog`lanish tipini va molekuladagi tuzilishdan hech qanday ma'lumot bermaydi. Valentlik stexiometrik tushunchasi kimyoga atom tuzilishi ma'lum bo'lguncha kiritilgan edi. Hozirgi paytda ma'lumki elementning bu xossasi tashqi elektronlar soni bilan uzviy bog`liq. Ko'pchilik elementlar uchun yuqori valentlik stexiometriyasi bu elementlarning davriy sistemadagi o'rnidan kelib chikadi.

**IONLARNING ZARYADLARI** .- Ionlarning elektr zaryadlari (formulalardagi arab sonlaridan keyin kuyiladigan "+" yoki "-" belgilar) ion birikmalarning kristall panjaralardagi bu ionlar qanday nisbatlarda turganligini harakterlaydi.

Mas: kation va anion zaryadlariga mos ravishda, bu ionlari tutgan birikmalar quyidagi tarkibga ega.

Ionlar	Na <sup>+</sup>	Ca <sup>2+</sup>	Al <sup>3+</sup>
F <sup>-</sup>	NaF	CaF <sub>2</sub>	AlF <sub>3</sub>
O <sup>2-</sup>	Na <sub>2</sub> O	CaO	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>
N <sup>3-</sup>	Na <sub>3</sub> N	Ca <sub>3</sub> N <sub>2</sub>	AlN
NO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	NaNO <sub>3</sub>	Ca(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub>	Al(NO <sub>3</sub> ) <sub>3</sub>
SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>	Na <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	CaSO <sub>4</sub>	Al <sub>2</sub> (SO <sub>4</sub> ) <sub>3</sub>
PO <sub>4</sub> <sup>3-</sup>	Na <sub>3</sub> PO <sub>4</sub>	Ca <sub>3</sub> (PO <sub>4</sub> ) <sub>2</sub>	AlPO <sub>4</sub>

Qadimgi adabiyotlarda ionlarning zaryadlari ionli valentlik deb atalgan. Bir valentli ionlar zaryadi bilan neytral atomlarning valent elektronlari orasida to'g'ridan-to'g'ri bog`lanish mavjud.

Ionlarning musbat zaryadi bitta element atomidan berilgan elektronlar soniga teng bo'ladi. Manfiy zaryad esa bitta element atomi tomonidan qabul qilingan elektronlar soniga teng bo'ladi.

Mas: Na<sup>+</sup>, Ca<sup>2+</sup>, Al<sup>3+</sup> ionlari o'z navbatida 1, 2, 3, elektronni yo'qotgan F<sup>-</sup>, O<sup>2-</sup>, N<sup>3-</sup>, ionlari esa 1, 2, 3, elektronni qabul qilgan hisoblanadi.

Oksidlanish darajasi- SO<sub>2</sub>, NH<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, CO<sub>2</sub>, HNO<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> va h. k. molekulyar hamda: Na<sub>2</sub>O Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ionlari oddiy va kompleks birikmalarning tarkibini aniqlash uchun elementlarning oksidlanish darajalari degan tushuncha kiritilgan. Elementlarning oksidlanish darajalari bu birikmalarda hamma bog`lanish ionli deb faraz qilganda element atomlarining shartli elektr zaryadlaridir.

Birikmalarda elementlarning oksidlanish darajalari va ion zaryadlari quyidagicha belgilanadi.

Masalan: oksidlanish darajasi. ion zaryadi



Elementning oksidlanish darajasini aniqlashda doimo kislородning oksidlanish darajasi -2, vodorodni esa +1 deb qabul qilingan. Mas: HCl<sup>-</sup>, H<sub>2</sub>S<sup>-2</sup>, N<sup>-3</sup>H<sub>3</sub>, C<sup>-4</sup>H<sub>4</sub> yoki Na<sup>+2</sup>O, Ca<sup>+2</sup>O, Al<sup>+3</sup>O<sub>3</sub>, C<sup>+4</sup>O<sub>2</sub> P<sup>+5</sup>O<sub>5</sub>, S<sup>+6</sup>O<sub>3</sub>, Cl<sup>+7</sup>O<sub>7</sub>, Ru<sup>+8</sup>O<sub>4</sub>.



Erkin elementlarning yoki ikkita bir xil atomdan tuzilgan molekulalarning oksidlanish darajalari 0 ga teng.

Mas: Cu<sup>0</sup>, Al<sup>0</sup>, Fe<sup>0</sup>, H<sub>2</sub><sup>0</sup>, O<sub>2</sub><sup>0</sup>, Cl<sub>2</sub><sup>0</sup>, N<sub>2</sub><sup>0</sup>.

Atomlarning birikmalardagi oksidlanish darajalari -4, -3, -2, -1 va 0 dan +8 gacha bo'ladi, hatto kasr sondagi oksidanish darajalar ham ma'lum: KO<sub>2</sub><sup>-1/2</sup>, KO<sub>3</sub><sup>-1/3</sup> bo'ladi. Ko'pchilik hollarda molekula tarkibidagi atomlarning oksidlanish darajalari ularning valentliklariga, ya'ni ayni element hosil qiladigan haqiqiy bog`lanishlar soniga teng bo'lmaydi. Mas: organik birikmalarda uglerodning valentligi 4 ga teng, lekin uning oksidlanish darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Buni quyidagi jadval natijalaridan ko'rish mumkin:

Birikma	Valentligi	Oksidlanish darajasi
CO	II	+2
SO <sub>2</sub>	IV	+4
SN <sub>4</sub>	IV	-4
C <sub>2</sub> H <sub>4</sub>	IV	-2
C <sub>2</sub> H <sub>2</sub>	IV	-1
CH <sub>3</sub> COOH	IV	0


**Molekulalarda oksidlanish darajasi** - molekulalarda elementlarning oksidlanish darajalarini aniqlashda molekulani fikran bir atomli ionlarga bo'lish kerak. Bunda qutbli kovalent bog`lanishlarga e'tibor berish lozim, ya'ni elektron juft ko'prok elektromanfiy element tomon siljiganligiga va sof kovalent juftlanishlarga ega elektron jufthar ikkala atomga teng bo'lganligi nazarga olinadi. Shunday qilib, har birikmalardagi har bir element atomining elektr zaryadi yoki oksidlanish darajasi aniqlanadi.



Molekulalarda elementlarning oksidlanish darajalarining algebraik yig`indisi element atomlari soni hisobga olinganda nolga teng bo'lishi kerak.

Mas: R<sub>2</sub>O<sub>5</sub> - molekulasida 2 ta fosfor atomining umumiyligi zaryadi +10 ga teng, 5 ta kislород atomining umumiyligi zaryadi esa-10 ga teng bo'lib, zaryadlarning umumiyligi yig`indisi nolga tengdir.

**Ionlarda oksidlanish darajalari** - ko'p elementli ionlarda ham elementlarning oksidlanish darajalarini topishda xuddi yuqoridaqidek molekulani tashkil etgan bir atomli ionlarga bo'linadi.



Ko'p elementli ionlarda elementlarning oksidlanish darajalarining algebraik yig`indisi element atomlari hisobiga olinganda ion zaryadiga tengdir.

Mas: NH<sub>4</sub><sup>+</sup>-ionida 4H<sup>+</sup>=+4, N=-3 ga teng bo'lganligi uchun ionlarning algebraik yig`indisi +1 ga teng, ya'ni NH<sub>4</sub><sup>+</sup> zaryadiga ega. Kompleks ionlarda markaziy atomining oksidlanish darajasi osonlik bilan kompleks ion zaryadidan umumiyligi ligandlar zaryadini ayirib tashlash yuli bilan aniqlanadi:



$$(-1) - (-4) = -1 + 4 = +3 \text{ Al}^{3+}$$

$$+2 - 0 = +2 \cdot \text{Cu}^{2+}$$

$$(-4) - (-6) = -4 + 6 = +2 \text{ Fe}^{2+} \text{ va h. k.}$$

Moddalar qanday tuzilganligi to'g'risidagi axborotni, uning fizik va kimyoviy xossalari tekshirish natijalariga qarab bilib olinadi. Mas: fizikaviy tekshirish usullari natijasida molekulaning asosiy parametrлари - yadrolar orasidagi masofa, valent burchaklari va molekulaning geometrik shakllari aniqlanadi. Masalan tajribada suv molekulasidagi vodorod va kislород yadrolari orasidagi masofa 0,96 Å<sup>0</sup> ga teng ekanligi aniqlangan. Kimyoviy bog`langan atom yadrolarining orasidagi masofa bog`lanish uzunligi deyiladi (d). Kimyoviy bog`langan atom yadrolarining orasidagi burchak valent burchagi deyiladi (L). Suv molekulasida bu burchak L<104,5° ga tengdir. Demak suv molekulasi uchburchak shaklga ega. d<sub>on</sub> = 0,96 Å<sup>0</sup>



Kimyoviy bog`lanishning eng muhim tavsiflaridan biri bog`lanish energiyasidir. Bu energiya kimyoviy bog`lanishni barqarorligini belgilaydi. O`zaro bog`langan atomlar orasidagi bog`ni uzish uchun kerak bo`lgan energiya miqdoriga bog`lanish energiyasi deyiladi (E). Uning o`lchami  $E = \text{kkal/mol, kal/mol, kDj/mol}$ .

2-atomli molekulalar uchun bog`lanish energiyasi, shu molekulani atomlarga dissostilanish energiyasiga teng bo`ladi:

$$\text{Mas: } N_2 = 2N \quad E = 435 \text{ kDj/mol}$$

$$F_2 = 2F \quad E = 151 \text{ kDj/mol}$$

$$N_2 = 2N \quad E = 940 \text{ kDj/mol}$$

$\text{AB}_n$  yoki  $\text{AnB}$  toshidagi ko`p atomli molekulalar uchun bog`lanish energiyasi:  $\text{AB}_n = A + nB$

$$E_{\text{AB}_n} = \frac{D}{n}; \quad H_2O = 2H + O \quad E = 928 \text{ kDj/mol}$$

N-O bog`lanish kuchi bir xil bo`lganligi uchun o`rtacha bog`lanish energiyasi

$$E_{\text{on}} = \frac{D}{n} = \frac{928}{2} = 464 \text{ kDj/mol}$$

Bog`lanish uzunligi, bog`lanish energiyasi va valentliklar burchagi kabi kattaliklar moddaning boshqa xossalari shu moddaning elektron zichligining xarakteriga to`g`ridan - to`g`ri bog`liqdir. Kimyoviy bog`lanish asosan valent elektronlari ishtirokida amalgaga oshadi. s-elementlarning tashqi ns-qavatchada joylashgan elektronlari, p-elementlarda esa tashqi ns va np qavatchalarda joylashgan elektronlari, d-elementlarda, tashqi ns- va tashqaridan ichki n-ℓ d qavatchalardagi, f-elementlarda esa ns va n-2 f qavatchalarda joylashgan elektronlari valent elektronlari deyiladi.

s-elementlar o`zgarmas doimiy valentlikni, p, d va f - elementlar esa o`zgaruvchan valentlikni namoyon qiladilar. Demak, kimyoviy bog`lanish paytida elektronlarning qayta taqsimlanishi sodir bo`ladi. Buning natijasida elektronlar bir atom yoki molekuladan 2-chisiga o`tadi yoki elektron zichligi biridan 2-chisiga tomon siljishi mumkin. Atom yoki molekulalarning elektron berishi yoki qabul qilib olishi natijasida hosil bo`ladigan zarrachalar ionlar deyiladi. Ionlar musbat (+) va manfiy (-) zaryadli bo`ladi. Modda tarkibida musbat va manfiy ionlar o`zaro bog`langan va ( $n+n^- = 0$ ) molekula elektroneytral bo`ladi. To`yinmagan valentlikga ega bo`lgan zarrachalar erkin radikallar deyiladi. Erkin radikallar molekulalarning parchalaridir:  $-\text{CN}$ ,  $-\text{OH}$ ,  $-\text{CH}_3$ ,  $-\text{NH}_2$ ,  $-\text{HS}$ ,  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{O}^+$  .....

Bizga ilgaridan ma'lum ediki (3-ma'ruzaga qarang) elementlarning metallik va metallmaslik xossalari taqqoslash uchun Malliken va Poling elektromanfiylikni nisbiy qiymatlaridan foydalanishni taklif etgan edi.

Buning uchun litiyning nisbiy elektromanfiyligi shartli ravishda 1 ga teng deb kabul qilingan. Davrlarda chapdan unga o`tgan sari elektromanfiylik qiymati ortib boradi, guruhlarda esa yuqorida pastga o`tgan sari kamayib boradi. Masalan: II davr va VII - guruh uchun elektromanfiylik qiymatlarini o`zgarishini ko`raylik: II davr:

Li,	Be,	B,	C,	N,	O,	F	VII guruh	F,	Cl,	Br,	I
1,0	1,5	2,0	2,5	3,0	3,5	4,1		4,1	3,0	2,5	2,6

Kimyoviy bog`lanish xarakteri o`zaro birikuvchi elementlarning nisbiy elektromanfiyliklari ayirmasiga bog`liq bo`ladi. Agar ikki elementning nisbiy elektromanfiyliklari orasidagi ayirma katta bo`lsa (1,5 dan to 3,3 gacha) bu elementlar orasida ionli bog`lanish hosil bo`ladi, agar bu ayirma unchalik kichik bo`lmasa (1,5 ga yaqin) qutbli kovalent bog`lanish, agar nisbiy elektromanfiyliklar ayirmasi juda kichik bo`lsa qutbsiz kovalent bog`lanish yuzaga keladi.

Shunday qilib, kimyoviy bog`lanish deb ikki yoki undan ortiq atom-larning kimyoviy barqaror ko`p atomli sistema hosil qilishi va unda bog`langan atomlarning elektron bulutlarining qayta taqsimlanishiga aytildi.

**Kovalent bog`lanish** -  $\text{N}_2\text{O}$ ,  $\text{O}_2$ ,  $\text{N}_2$ ,  $\text{Cl}_2$  ..... kabi molekulalarning va ko`pchilik anorganik hamda organik moddalarning tuzilishini tushintirish uchun 1916 yilda Lyuis (AQSh) tomonidan kovalent bog`lanish nazariyasini yaratildi. Lyuis nazariyasiga muvofiq, molekulada atomlar, har ikkala atom uchun ta'lukli bo`lgan umumiylar elektron jufti orqali bog`langan bo`ladi. Atom tomonidan elektron juftlarni hosil qilish uchun sarf bo`lgan elektronlar jufti soni bog`langan atomlarning valentligini bildiradi (Lengmyur). Struktura formuladagi valentlik birligini bildiruvchi chiziqcha (-) elektron juftni anglatadi. Ko`pgina molekulada tashqi qavatcha umumiylar bilan, hosil bo`lgan elektronlar jufti birgalikda barqaror duplet (2) yoki oktet (8) elektronli konfigurastiya hosil qiladi. Atomlar orasida Lyuis sxemasi buyicha hosil bo`ladigan kimyoviy bog`lanish kovalent bog`lanish deyiladi.



Kovalent - bu teng valentli demakdir. Kovalent bog`lanish birikuvchi atomlarning tabiatiga qarab 2-ga bo`linadi.

1. Kovalent qutbsiz; 2. Kovalent qutbli

1. Bir xil ikki atom orasida elektronlar jufti hisobiga hosil bo`ladigan bog`lanishga qutbsiz kovalent bog`lanish deyiladi.



Luis fikricha molekulalar gomoyadroli va geteroyadroli bo`lishi mumkin. Mas:  $\text{N}_2$  elektronlarining to`lqin xossasi borligi uchun elektron harakati natijasida  $\text{N}^+ \text{N}^-$  yoki  $\text{N}^- \text{N}^+$  bo`lishi mumkin. Shuning uchun ularning simmetrik o`rinlaridan effektiv (real) zaryadini atomlarda nolga teng deb olib, bunday bog`lanishni qutbsiz (gomeopolyar) deb ataydi.  $\text{N}^+ \text{Sl}^-$  da H  $1s^1$  va Sl  $3s^2 3p_x^2 3p_y^2 3p_z^1$  juftlashmagan elektronlar umumiylashtirishga qutbli bo`ladi. Bunda effektiv zaryad  $\text{H}^+ \text{Cl}^-$  bo`ladi.  $\text{HCl}$  molekulasi dipol bo`lib bog`lanish qutbli bo`ladi. Bir xil bo`limgan 2 atom orasidagi elektronlar jufti hisobiga bo`lgan bog`lanish qutbli kovalent bog`lanish deyiladi.



H

Qutbli kovalent bog`lanishda elektronlar jufti simmetrik joylashmaydi va molekulalarda qarama-qarshi zaryadlarning og`irlilik markazlari ham bir nuqtada etmaydi. Shu sababli bunday molekulalarni qutbli molekulalar deyiladi. Ular 2 qutbli bo`lganligi uchun ularga dipollar deyiladi.

Dipol deb bir xil *q*-qiymatli va har xil zaryadli  $\ell$ -masofada joylashgan ionlardan tashkil topgan sistemaga aytildi. Zaryadning masofaga ko`paytmasi dipol momenti deyiladi  $\mu = q\ell$ . Qutbli bog`lanish deb dipol momenti bilan xarakterlanadigan bog`lanishga aytildi. Qutbsiz bog`lanishda  $\mu = 0$  bo`ladi. Qutbli bog`lanishli moddalarning reakstiyaga kirish qobiliyati qutbsiz molekuladan ko`proq bo`ladi. Shunday qilib kovalent bog`lanish juft elektronlar bilan xarakterlanadi. Dipol uzunligi- $\ell$  atom o`lchamiday  $10^{-8}$  sm, zaryadi  $q=4,8 \cdot 10^{-10}$  el. st. birlik. Shuning uchun  $\mu=10^{-18}$  el. st. br. sm. ga teng bo`ladi. Dipol momenti birligi qilib 1D debay qabul kilingan.  $1D=3,33 \cdot 10^{-30}$  Kl. m ga teng.  $\mu$  vektor bo`lib, u ham miqdoriy yo`nalishga egadir. Uning yo`nalishini shartli ravishda + va - ishoralarini bilan belgilanadi.

$$\mu_{\text{H}_2\text{O}} = 1,83 \text{ D} \text{ (burchaksimon tuzilishli)}$$

$$\mu_{\text{CO}_2} \approx \mu_{\text{BeF}_2} \text{ (chiziqli tuzilishli)} \quad \mu=0$$

$$\mu_{\text{NH}_3} = 1,48 \text{ D} \text{ (piramidal tuzilishli).}$$


Shunday qilib, dipol momenti molekulaning strukturasini ham ko`rsatadi.

**Ion bog`lanish.** Ion bog`lanishning tabiatini, strukturasi va ion bog`lanishdagi birikmalarning xossalari kimyoviy bog`lanishning elektrostatik nazariyasi asosida tushuntiriladi. Bu nazariyaga muvofiq atomning elektron berishi yoki qabul qilishi natijasida hosil bo`lgan qarama-qarshi zaryadlangan ionlar elektrostatik kuchlar vositasida o`zaro tortishib barqaror sistemani hosil qiladi. Elementlarning oddiy ionlarga aylanish qobiliyati, ular atomlarning elektron strukturalaridan kelib chiqadi.

Bu qobiliyatni ionlanish energiyasining qiymati va atomlarning elektronlarga moyilligiga qarab baholash mumkin.

Ionlanish energiyasi kam bo`lgan ishqoriy va ishqoriy-er metallari bilan elektronga moyilligi juda katta bo`lgan VII-guruhning p-elementlari osonlik bilan oddiy ionlar hosil qiladi.

Masalan:  $\text{NaCl}$  - ning hosil bo`lishi mexanizmini ko`raylik:



Qarama-qarshi zaryadlangan ionlar orasidagi elektrostatik tortishuv hisobiga hosil bo`ladigan kimyoviy birikmallar ion yoki geteropolyar birikmalar deyiladi. Ion birikmalar hosil bo`lishidagi kimyoviy bog`lanish ion yoki elektrovalent bog`lanish deyiladi. Ion bog`lanish qarama-qarshi zaryadlangan ionlararo o`zaro ta'sir natijasida hosil bo`ladi.

Ion bog`lanish yo`naluvchanlik va tuyinuvchanlik xossalari namoyon qilmaydi. Har bir ionni zaryadlangan shar deb tasavvur qilsak, ionning kuch maydoni fazoda hamma yo`nalishlar buyicha tekis tarkaladi.



Shuning uchun har bir ion o'ziga qarama-qarshi zaryadli boshqa ionni har qanday yo'nalishda ham bir tekisda tortib oladi:

Shuning uchun har birida elektr kuchlarining taqsimlanishi. ion yana boshqa zaryadli ionlarni o'ziga tortaveradi. Bu xodisa ion bog`lanishni to'yinmaslik xususiyatini bildiradi. Ion bog`lanish yo'naluvchanlik va to'yinuvchanlik xossalariiga ega bo'limganligidan, har qaysi ion atrofida maksimal miqdorda qarama-qarshi zaryadli ionlar bo'ladi. Ayni musbat yoki manfiy ion atrofida joylashishi mumkin bo'lgan ionlarning soni, shu ionlar radiuslarining bir-biriga nisbatan katta-kichikligiga bog`liq. Masalan: ion radiuslarining nisbati 0,41-0,73 gacha bo'lsa oktaedrik koordinastiya, 0,73-1,37 gacha bo'lsa kub koordinastiya bo'ladi.

Shu sababli odatdagagi sharoitda ion bog`lanishli birikmalar kristall moddalardir. Kristall NaCl yoki CsCl holida yakka-yakka mavjud bo'lmasdani, o'zaro birlashgan, juda ko'p ionlardan tashkil topgan gigant molekulalar NanClm yoki CsnClm holida mavjud bo'ladi. Ion bog`lanishli birikmalar qiyin suyuqlanadi, ya'ni suyuqlanish temperaturalari ancha yuqori (NaCl-  $t_c = 800^{\circ}\text{C}$ ; KCl -  $t_c = 768^{\circ}\text{C}$ ) va ularning suyuqlanmalari hamda suvdagi eritmalari elektr tokini yaxshi o'tkazadi. Shu sababli ularga kuchli elektrolitlar deyiladi.

### **Vodorod bog`lanish.**

Atom va molekulalar orasida asosiy boglanishlardan tashqari, yana ikkinchi darajali bog`lanish xillari- vodorod bog`lanish, hamda molekulalararo tortishish kuchlari (Van – der – Vaals kuchlari) ham ma'lum. Vodorod bog`lanishning asosiy mohiyati shundan iboratki, biror modda molekulasida ftor, kislород, azot kabi elektromanfiy element atomlari bilan birikkan bir valentli vodorod atomi yana boshqa ftor, kislород va azot atomlari bilan kuchsizroq bog`lanish xususiyatiga ega.

(H - F .... H - F ... H - F yoki H – O . ..H - O .. H -O...)

Molekulalararo vodorod bog`lanishdan tashqari ichki molekulyar vodorod bog`lanish ham mavjud. Bunday bog`lanish ortonirofenolda yuzaga keladi:

Vodorod bog`lanishning bunday oqibatida ortonirofenol ancha past ( $45^{\circ}\text{C}$ ) temperaturada suyuqlanadi, metanitrofenolga nisbatan ( $97^{\circ}\text{C}$ ) uning molekulasi vodorod bog`lanish hisobiga assostilangan bo'ladi: (O<sub>2</sub>N-C<sub>6</sub>H<sub>4</sub>-OH...O<sub>2</sub>N-C<sub>6</sub>H<sub>4</sub>-OH)

Bularda kuchli vodorod bog` hosil bo'lishiga sabab  $\sigma$   $\sigma^{+1}$ ,  $\sigma^*$  va bog`lar bo'ladi. Vodorod bog` hosil qilishda suyuqliklar yuqori temperaturada qaynaydi. Agar erituvchi bilan vodorod bog` hosil qiladigan moddaning bir - biriga tortishishi qanchalik yuqori bo'lsa, uning eruvchanligi shuncha oshadi. Shunday qilib, elektromanfiyligi katta bo'lgan element atomi bilan vodorod atomi orasida vujudga keladigan ikkinchi darajali kimyoviy bog`lanish vodorod bog`lanish deyiladi. Vodorod bog`lanishning barqarorligi 5–8 kkal/mol bo'lsa, kimyoviy bog`lanishning asosiy turlarining mustahkamligi 20 – 230 kkal/ molga teng bo'ladi. Molekulalararo tortishish kuchlarining mustahkamligi kichik 0,02 – 2,0 kkal/mol bo'ladi. Murakkab moddalarda kimyoviy bog`lanishning bir necha turlarini uchratishimiz mumkin.

Mas: CuSO<sub>4</sub>·5H<sub>2</sub>O, [Cu(H<sub>2</sub>O)<sub>4</sub>]SO<sub>4</sub>·H<sub>2</sub>O, da [ Cu(H<sub>2</sub>O)<sub>4</sub>]<sup>2+</sup>ioni va SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> ioni orasida kuchli ionli bog`lanish, Cu<sup>2+</sup> ioni bilan 4 ta H<sub>2</sub>O molekulasi orasida donor – aksteptor bog`lanish, bir molekula suv bilan [Cu(H<sub>2</sub>O)<sub>4</sub>]SO<sub>4</sub> orasida vodorod bog`lanish mavjud.

### **Qutbli va qutbsiz molekulalar**

Elektromanfiyligi bir xil bo'lgan atomlar o'zaro ta'sirlashib kovalent bog`lanish hosil qilganda, molekuladagi umumiy juft elektron atomning o'rtasiga joylashadi. Bunday molekulalar qutbsiz molekula deyiladi. Bunday molekulalarda musbat va manfiy zaryadlarning markazi bir nuqtada bo'ladi. Elektromanfiyliji har xil bo'lgan atomlar o'zaro ta'sir etib, kovalent bog`lanish hosil qilishda molekuladagi umumiy juft elektron elektrmanfiyliji qattaroq bo'lgan element atomi tomoniga siljigan bo'ladi. Natijada hosil bo'lgan molekulada musbat va manfiy zaryadlarning markazi bir nuqtada bo'lmaydi, ya'ni siljish yuzaga keladi. Molekulada ikki qutb hosil bo'ladi: molekulaning bir qismi musbat zaryadga, ikkinchi qismi esa manfiy zaryadga ega bo'lib qoladi. Ammo molekula elektroneytral bo'ladi. Chunki, molekulani tashkil qiluvchi atomlarning yadrosidagi musbat zaryadlar soni molekuladagi manfiy zaryadlar soniga tengdir. Manfiy va musbat zaryadlar markazi siljigan molekulalar qutbli molekulalar deyiladi.

Kattaligi jihatidan bir-biriga teng, ammo qarama-qarshi ishorali va bir-biridan ma'lum masofada joylashgan ikkita elektr zaryadli sistema dipol deb ataladi. Dipol uzunligi  $\ell$ -ning elektron zaryadi  $\ell$ -ga ko'paytmasi dipol momenti deyiladi:  $\mu=\ell \cdot e$  ( $\mu$ -molekulaning dipol momenti). Dipol momenti molekulaning qutblilik darajasini bildiradi. SGS sistemada dipol uzunligi taxminan molekula o'lchamiga, ya'ni  $10^{-8}$  sm ga, elektronning zaryadi esa  $4,8 \cdot 10^{-10}$  elektrostatik birlikka (el. st. birlik)

teng ekanligini e'tiborga olsak, dipol momenti 10-18 ga teng bo'ladi. Elektrostatik birlik SM bilan o'lchanadi, 10-18 kattalik dipol momentining birligi deb qabul qilingan, u debay deb ataladi va D. harfi bilan belgilanadi. Molekulada bir necha qutbli bog'lar simmetrik joylashgan bo'lsa, zaryadlar bir-birini qoplashi natijasida molekula qutbsiz bo'lishi ham mumkin:  $O=C=O$ . *Qutblanish*. Atom, ion va molekulalarda tashqi elektr maydoni ta'sirida yuzaga keladigan o'zgarish qutblanish deyiladi. Elektr maydoni ta'sirida har qanday molekulada qutblanish vujudga keladi.

Qutbli molekulalardan tuzilgan moddalarning qtublanishi orientatsion qutblanish deyiladi. Orientatsion qutblanish faqat tashqi elektr maydoni ta'sirida emas, balki molekula va ionlar elektr maydonlarining bir-biriga ta'siri natijasida ham sodir bo'ladi (13 rasm). Ionlarning qutblanishi ularning zaryadi va radiusiga bog'liq. Odatda manfiy zaryadli ionlar ko'proq qutblanadi;


Ionning zaryadi qancha katta, radiusi qancha kichik bo'lsa, ion shuncha kuchli qtublanadi. Musbat ionlarning qutblanish ta'siri ularning zaryadiga to'g'ri va radiusiga teskari proportsional; zaryad qancha katta va radius kichik bo'lsa, qutblanish ta'siri shuncha kuchli bo'ladi.

**Molekulalararo kuchlar.** Molekulalararo ta'sir kuchlari 3 xil bo'ladi: orientatsion, induksion va dispersion kuchlar. Molekulalar qancha kuchli qtublangan bo'lsa, ular bir-biriga shuncha kuchli tortiladi. Qtublangan molekulalarning bir-biriga bunday ta'siri orientatsion ta'sir kuchi deyiladi. Qtublangan va qutblanmagan molekulalararo ta'sirlanish natijasida qutblanmagan molekula qtublangan molekulaga o'tish-molekulalararo induksion ta'sir kuchi deyiladi. Qutblanmagan molekulalar orasida ham dispersion o'zaro ta'sir vujudga keladi. Bunday ta'sirning vujudga keltiruvchi kuch disperssion kuch deyiladi. Disperssion kuchlarning kelib chiqish sababi shundaki, molekula tarkibidagi atomlarning elektron bulutlari fluktatsiya hodisasi tufayli molekula bir lahzada o'zining yo'naliшини va kattaligini o'zgartirib turadi; shunga ko'ra molekulani mikrodipol deb qarash mumkin. Bir molekulada vujudga kelgan mikrodipol qo'shi molekula mikrodipoli bilan o'zaro ta'sirlashib, tortilish kuchi namoyon qiladi. Bu 3 xil molekulalararo ta'sir etuvchi kuchlarga umumiy qilib Vander-vaals kuchlari degan nom berilgan.

Hozirgi zamonda kvant mexanika usullaridan kovalent bog`lanishni tushuntirish uchun valent bog`lanishlar usuli va molekulyar orbitallar usullari ishlataladi. Valent bog`lanishlar usulini 1927 yilda Geytler va London (Germaniya) vodorod molekulasida elektronlar zichligi va energiyasini hisoblash yo'li bilan tushuntirishni taklif qildi. Ular N-N oralig'idagi masofa  $R$  ni o'zgaruvchan deb ikki elektron oralig'idagi potenstial energiyasini elektronlar funkstiya koeffitsenti sistemasi deb ikki elektronli to'lqin funkstiyasi  $\varphi$ -ni aniqlaydi. Bu tenglamani echishda sistemaning to'liq energiyasi  $E$  ni atomlar oralig'idagi masofaning funkstiyasi deb oladi. Bunda agar elektronlar parallel spinlardan iborat bo'lsa ular yaqinlashganda energiyasi oshadi, shuning uchun molekula hosil bo'lmaydi.

Agar qarama - qarshi spinlar bo'lsa energiya kamayib molekula hosil bo'ladi. Ular orasidagi masofa  $R_0$  ga borganda energiya yana oshadi. Bu  $R_0$  - vodorod molekulasi dagi yadrolar orasidagi muvozanat masofasidir.

Bu ikki atomli molekulaga tadbiq qilib tushirishda valent bog`lanishlar usulini quyidagicha 2 prinzip orqali tushuntirish mumkin.




**Birinchi prinzip:** Lokallashgan elektron bulutlari bog`lanish hosil qiladi, atom orbitallar bir-birining ustini qoplaydi. Qarama - qarshi spinli elektron orbitallari bir - birini qoplaganda yadro orasidagi atom orbitallari orasida eng yuqori elektron bulut zichligi hosil bo'lib yadrolar tortishadigan zaryadlar hosil qiladi va sistema energiyasi kamayib bog` hosil bo'ladi.

**Ikkinchchi prinzip:** Atom orbitallarining maksimal qoplanishi natijasida bog` hosil bo'lishi ya'ni, atom orbitallari qancha kuchli bir - birini qoplasa shuncha kuchli bog`lar hosil bo'ladi. Bog`dan qaysi atom boshqasini ko'proq qoplasa shu yo'naliш bo'ylab hosil bo'ladi.

Valent bog`lanishlar usulida ikkita mexanizm mayjud:



- |                            |                                   |
|----------------------------|-----------------------------------|
| 1. $N_2$ - molekulasi      | 5. $N : N$ elektron formulasi     |
| 2. $N + N \rightarrow N_2$ | 6. $N - N$ struktura formulasi    |
| 3. $2N - 1s$               | Bunda zaryadlar teng taqsimlangan |

4. N  $\uparrow$  1s bo'lib, ikkala elektron ham teng  
     N  $\uparrow$  1s kuchli bo'ladi.
2. Atomlardan biridagi juft elektronlar hisobiga hosil bo'ladigan bog`lanishlar donor - aksteptor bog`lanishlar deyiladi.




5. N : N umumiy juft elektron  
  6. N - N

Ikkala mexanizm ham bir xil natija berdi.




H



Demak, kompleks birikmalarda 2 elektronli bog`lanishni valent bog`lanish deyiladi.

N - kovalentligi 3 uni xlorga nisbatan elektromanfiyligi -2,83, azotning nisbiy elektromanfiyligi esa 3,0 ga teng.



Elektromanfiy zaryad yig`indisi nolga teng. Kamchiligi valent bog`lanishlar usuli  $\text{N}_2$  hosil bo`lishi,  $\text{O}_2$  paramagnit xossasini  $\text{XeF}_6$ ,  $\text{XeOF}_4$ ,  $\text{XeO}_3$  larda qanday bog` hosil bo`lishini tushuntira olmaydi. Valent bog`lanishlar usulining asosiy hollari quyidagilardan iborat:

1. O`zaro birikuvchi atomlar orasidagi bog`, tashqi elektron qavatdagi elektronlardan bir qismining umumiy elektron juftlari hosil kilishi natijasida yuzaga keladi. Bunda elektronning spinlari antiparallel ( $\uparrow\downarrow$ ) bo`lishi kerak va bunday elektronning bulutlari bir -birini qoplab, o`zaro birikuvchi atomlar yadrolari orasidagi fazoda taqsimlanadi.

2. O`zaro birikuvchi 2 atom maydonida juftlashmagan umumiy elektronlar zichligi lokallangan, ya`ni elektronlarning bulutlari bir - birini qoplagan bo`lishi kerak. Bu atomlarni biriktiruvchi (bog`lovchi) elektron juftlari miqdori, kimyoviy bog`lanishni miqdor birligini yoki uning valentligini bildiradi.

3. O`zaro birikuvchi atomlarning orasida elektron juftning hosil bo`lishida faqat juftlanmagan, bitta yacheykani egallagan toq elektronlargina ishtirot etadi. Bog`lanishda ishtirot etmay qoladigan juft elektronlar - ajralmaydigan (ajralmas) juft deyiladi.


4. 2 atomning toq elektronlari o`zaro bog`lanib elektron juft hosil qilishlari uchun ularning spinlari qarama - qarshi zaryadga ega bo`lishi kerak, yoki elektronlar spinlari albatta antiparallel ( $\uparrow\downarrow$ ) bo`lishi kerak.

### **$\sigma$ , $\pi$ va $\delta$ - bog`lanish.**

Lokallashgan elektron bulutlarining valent bog`lanishlar usuli bir qavatli bog`lanish deb elektron juft hisobiga bog`langan bog`lanishlarga aytildi.  $\text{N}_2$ ,  $\text{NSI}$ ,  $\text{F}_2$  bunda doimo  $\sigma$  - bog`lanish bo`ladi.

**$\sigma$  - bog`lanish deb** - bog`lanish chizig`i orqali bironta ham tekislik o`tmaydigan kimyoviy bog`lanishlarga aytildi. Koordinatlardan biri - aloqa chizig`i deb ataymiz.

Mas: x - o`qi qaysi atom orbitallari orasida  $\sigma$  - bog` hosil bo`ladi.




Bunda tekislikning yuqorisida ++ pastida +- qoplanish bo`ladi.

$s - p_y$  shuning uchun, umumiyl qoplanish ayirmasi nolga teng bo'lisi uchun  $s - p_y$  urnida  $\sigma$ -bog`lanish bo'lmaydi.  $\sigma$ - bog`lanish molekula strukturasini o'rganishda katta ahamiyatga ega.  $\sigma$ -bog`lanishning yo'naliishini valent burchaklari ko'rsatadi.



Agar kimyoviy bog`lanish bittadan ortiqcha juft elektron bilan bog`lansa ularga qo'sh bog` deyiladi.

Bog`lanish tartibi esa - bog` hosil qilgan umumiyl elektronlar soni bilan ifodalanadi. Bog`lanish qo'sh bog`, uchlamchi bog` va yuqori bo'ladi. Albatta 1 si  $\delta$ -bog`,  $\pi$ -bog` va ba'zi vaqtlarda  $\delta$ -bog`lanish bo'ladi.

**$\pi$  - bog`lanish deb** - bog`lanish chizig'i orqali bir tekislik tuguni o'tishi bilan bo'ladigan bog`lanishga aytildi.




Demak,  $\pi$ -bog`lanish bo'lganda elektron bulutlarning qoplanishi asosiy tekislikdan o'tadi.



Bulardan tashqari  $\delta$ -bog` bilan bunday bog`lanish chizig'idan 2 ta tekislik tuguni o'tadi. Demak, faqat d orbitallar hosil qiladi bu klaster deb nomlanadi, ya'ni tarkibida 2 ta metall atomi bo'lgan va ular o'zaro bir - biri bilan valent elektron bog`lanishlariga aytildi. Mas:  $Re_2 Cl_8^{2-}$  da  $Re = Re$

1- $\delta$  2-  $\pi$  3- $\delta$  bog` bilan bog`lanadi.



### Gibriddlanish nazariyasi.

Odatda atomlar kimyoviy bog`lanishlarda har xil energetik pag`onadagi elektronlar qatnashadi.



Bog`lanish hosil bo'lismida bir vaqtning o'zida ham s, ham p elektronlar ishtirot etadi. Bunday vaqtida dastlabki elektronlar buluti shakllari o'zaro o'zgarib, yangi boshqa shakldagi elektron bulut hosil qiladi. Kimyoviy bog`lanishda har xil elektron orbitallar ishtirot etishiga qaramay, teng kuchli, simmetrik shaklga ega bo'lgan molekulalar hosil bo'ladi. Bunda hosil bo'lgan bog`lar alohida olingan oddiy bog`lardan mustahkam bo'ladi. Bu xodisaga **gibriddlanish hodisasi** deyiladi.



$180^\circ$



$Cl - 109^\circ 28'$  va h. k.

Bu erda nima sababdan har xil holatlari elektron orbitallaridan, teng qiymatli bog` hosil bo'ladi degan haqiqiy savol tug'iladi? Bu qarama - qarshilikni elektron orbitallarining gibriddlanish nazariyasi bartaraf qildi. Bu nazariyaga muvofiq turli orbitallarga mansub elektronlar ishtirokida kimyoviy bog`lanish yuzaga chiqishida bu elektronlarning bulutlari bir - biriga ta'sir ko'rsatib, o'z shakllarini o'zgartiradi, natijada turli orbitallarning o'zaro qo'shilishi maxsuloti gibriddlangan orbitallar hosil bo'ladi.

Gibriddlanish paytida boshlang'ich orbitallar energiyasi bilan, orbital shakllari o'zaro ta'sir natijasida o'zgarib, bir xil energiyali, bir xil shaklli yangi orbitallar hosil bo'ladi. Bu orbitallarga gibriddlangan orbitallar deyildi.

$NH_3$  da  $HNH - 3p$  bog` hisobiga  $90^\circ$  burchak hosil bo'lishi kerak, lekin  $107^\circ$  burchak hosil bo'ladi, chunki bog`lanish p - p emas, balki  $sp^3$ - gibriddlanish hisobiga vujudga keladi.  $HOH$  da esa  $90^\circ$  li burchak o'rniga  $104^\circ 5'$  ni hosil qiladi, bu erda  $sp^3$ -gibriddlanish hosil bo'lishi bilan tushuntiriladi. Gibriddlanishning barqaror bo'lishi ularning energetik yaqinligiga va gibriddlangan bulutlarning

zichligiga bog`liq. Atomlar orasida doimo ozmi - ko`pmi qutbli bo`ladi. Bu qutblanish natijasida bog` uilib simmetrik va antisimmetrik bo`lishi mumkin.



### **Molekulyar orbitallar nazariyasi.**

Valent bog`lanishlar usuli, elektron orbitallarining gibridlanishi to`g`risidagi g`oyalar turli moddalarning tuzilishini, moddalarning molekulyar geometriyasini izohlab bersada, lekin ba`zi moddalarning tuzilishini izohlashda ko`pgina qiyinchiliklarga duch keladi. Ba`zi moddalarda elektron juftlari yordamisiz bog`lanishlarning yuzaga chiqishi aniqlandi. Mas: XIX asr oxirida Tomson vodorodni bambordimon qilib, molekulyar  $N_2^+$  - oinini oldi va bu ionda faqat bitta elektron bordir. Bu zarrachada yadroaro masofa  $1,06\text{A}^\circ$ , uning bog`lanish energiyasi 64,17 kkal. Ya`ni ancha barqaror zarracha. Bundan ikki yadro bir – biri bilan faqat birgina elektron orqali birika oladi, binobarin bir elektronli bog`lanishning amalga oshishi mumkin degan xulosa chiqadi.

Tekshirishlarning ko`rsatishicha faqat tarkibida toq elektronlar bo`lgan molekulalargina magnitga tortiladi.  $O_2$  qattiq holatda magnitga tortiladi, ammo valent bog`lanishlar nazariyasiga asosan  $O_2$  – sida toq elektronlar bo`lmaydi. Demak, valent bog`lanish usuli kislород molekulasining magnit xossasini izohlay olmaydi. Bu xodisani izohlaydigan, molekula hosil bo`lishida toq elektronlarni rolini ko`rsatadigan nazariya 1932 yilda Gund va Malliken tomonidan yaratildi va molekulyar orbitallar nazariyasi nomini oldi. Bu nazariyada har qaysi elektron molekulasidagi barcha yadro va ko`p markazli orbitallar ta'sirida bo`lishini e'tiborga oladi.

Molekulyar orbitallar nazariyasi bir necha variantlaridan eng qulayi atom orbitallarining chiziqli kombinastiya usulidir (a.o.ch.k.).

Bu usulda bir elektronning molekulyar to`lqin funkstiysi – molekulani tashkil etgan atomlarning funkstiyalarini bir – biriga qo`shish va bir – biridan ayirish natijasida topiladi. Sistemada elektron harakati:  $\varphi_+ = C_1(\varphi_a + \varphi_b)$   $\varphi_- = C_2(\varphi_a - \varphi_b)$  yoki  $\varphi_{\pm} = S(\varphi_a \pm \varphi_b)$  funkstiysi bilan ifodalanadi.  $S_1$  va  $S_2$  – koeffisientlar;  $\varphi_a$  va  $\varphi_b$  – ayni elektronning birinchi va ikkinchi yadroga oid funkstiyalari.  $\varphi_1$  – simmetrik,  $\varphi_2$  – antisimmetrik funkstiya deb ataladi.

Agar elektronning harakati antisimmetrik funkstiya bilan ifodalansa, u holda elektronning buluti yadrolar orasida zichlana olmaydi, yadrolar bir – biridan uzoqlashadi. Bu holda ikkita yadro va bitta elektron o`zaro birikib, molekula hosil qilmaydi. Xulosa: antisimmetrik funkstiya bilan ifodalananadigan orbitallar kimyoviy bog`lanishni yuzaga keltirmaydi, balki molekulani berqaror qilishga intiladi. Shuning uchun bunday orbitalga bo`shashtiruvchi orbital deyiladi.

Agar elektronning harakati simmetrik funkstiya bilan ifodalansa elektronning buluti yadrolar orasidagi joyda zich holatni egallaydi. Natijada yadrolar bir – biriga tortiladi va ular o`zaro birikadi. Bunday orbitalga bog`lovchi orbital deyiladi. Bog`lovchi molekulyar orbital hosil bo`lishi, yadrolar orasidagi elektron bulutning zichligini orttirib, kimyoviy bog`lanishni kuchaytiradi. Molekulaning barqarorligi uning tarkibidagi bo`shashtiruvchi va bog`lovchi elektron orbitallarning nisbiy miqdoriga bog`liq bo`ladi.



Masalan: Agar sistemada bitta bo`shashtiruvchi orbital hosil bo`lsa, u bitta bog`lovchi orbital ta'sirini yo`q qiladi. Atomda har qaysi elektron s, p, d, f –lar ifodalananadigan atom orbitallari xarakterlangani kabi, molekulada ham har qaysi elektron -  $\sigma$ ,  $\pi$ ,  $\delta$  va  $\theta$  kabi molekulyar orbitallar bilan ifodalanadi. Magnit soni  $m$  ga o`xshash molekulyar kvant son  $\lambda$  kiritilgan.  $\lambda = 0$  bo`lsa, bunday holat -  $\sigma$  holat deyiladi, bu holatni qabul qiladigan elektronlar soni 2 ga teng.

$\lambda = \pm 1$  bo`lganda  $\pi$  holatga ega bo`lamiz, bunday holatda 4 ta elektron bo`ladi. Agar  $\lambda = \pm 2$  bo`lsa,  $\delta$  holat bo`ladi va bunda ham 4 ta elektron bo`ladi. Molekulyar orbitallarning ham elektronlar bilan to`lib borishi xuddi atom orbitallaridagi kabi Pauli prinsipi va Gund qoidasiga bo`ysinadi. M.O.N da bog`lanishni xarakterlash uchun «bog`lanish tartibi» (BT) tushunchasi kiritilgan «Bog`lovchi orbitallardagi elektronlar sonidan bo`shashtiruvchi orbitallardagi elektronlar sonini olib tashlab 2 ga nisbatiga bog`lanish tartibi deyiladi».

$$B.T. = \frac{e-\delta\sigma-e-\delta\pi}{2}$$




H – ta atom orbitalidan N – ta molekulyar orbital hosil bo`ladi.

M.O.N. ni aniq misollarda ko`rib chiqaylik:




$\varphi_1$

*H<sub>2</sub> molekulyar orbitallarining hosil bo'lishi.*



$$\text{B.T.} = \frac{8-4}{2} = 2$$

Demak, kislorod molekulasining  $\pi_{\text{bo'sh}}$  2r – orbitalida faqat 2 ta elektron bor, vaholanki bu orbitalda 4 ta elektron bo'lishi kerak edi. Bu hol Pauli prinstipini va Gund qoidasiga ham zid emas. Shunday qilib, aolekulyar orbitallar metodi, kislorod molekulasiда 2 ta toq elektron borligini nazariy ravishda izohlab berdi. 2 ta toq elektron borligi sababli kislorod magnitga tortiladi, u paramagnit modda. Unda ortiqcha 4 ta bog`lovchi elektronlar bor (-rasm)



Kislorod molekulyao orbitallarining hosil bo'lishi.

Shunday qilib, molekulyar orbitallar usli yordami bilan yanada murakkab molekulalarning, hamda kompleks birikmalarning tuzilishlarini to'g'ri talqin qilish mumkin.

#### *Mavzuni yorituvchi nazorat sovollari*

1. Valentlik tushunchasi kim tomonidan fanga kiritilgan? Elementlar valentliklarining o'zgarishiga qarab necha xilga bo'linadi?
2. Ion nima? Ionlarning zaryadlari nimani bildiradi? Ion bog`lanish deb nimaga aytildi? Ion bog`lanishning xossalari.
3. Oksidlanish darajasi? Valentlik bilan oksidlanish darajasi o'rtasida kanday o'xshashlik va farq bor?
4. Lyuis nazariyasini ta'riflang. Kovalent nima? Lengmyur nazariysi.
5. Ionning oksidlanish darajasi deganda nimani tushunasiz?
6. Kimyoviy bog`lanish deb nimaga aytildi?
7. Kovalent bog`lanish (qutbli va qutbsiz)deb nimaga aytildi? Kovalent bog`lanishning to'ynuvchanligi va yo'naluvchanligi deganda nimani tushunasiz? Kovalent bog`lanishli birikmalarning

xossalari.

8. Gibridlanish nazariyasini tushuntiring.
9. Molekulyar orbitallar nazarisini izohlang.
10. Vodorod bog`lanish. Misollar.

### **Moddalarning agregat holatlari**

Kimyoviy moddalar muhitga bog`liq holda asosan uchta agregat holatda bo`ladi: 1)gaz holat; 2)suyuq holat; 3)qattiq holat. Moddalarning qaysi agregat holatda bo`lishlari ayni moddaning tabiatiga, temperaturaga va bosimga bog`liq.


**Gaz holat** Agar modda gaz holatda bo`lsa, u ma'lum bir shaklga, hajmga ega bo'lmay uning zichligi, yopishqoqligi juda kam bo'lib, xoxlagancha hajmni to'ldirishi mumkin. Gazlarning xossalari o'rganish natijasida gazlarning kinetik nazariyasini kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu nazariyaga ko'ra gazni tashkil qiluvchi atomlar yoki molekulalar har doim harakatda bo`ladi. Atom va molekulalar to'g'ri siniq chiziq bo'y lab harakatlanadi va shu harakatlanayotgan molekulalar idish devori bilan o'zaro to'qnashish natijasida o'zlarining harakatlanish yo'naliшlarini o'zgartiradi. Molekulalar va atomlar harakatlaganda har xil tezligkka ega bo'ladilar. Engil gazlar molekulalari eng katta o'rtacha tezlikka egadir: vodorod molekulasi uchun o'rtacha tezlik 00C da 1698 sm/sek. Gaz molekulalarining idish devori bilan to'qnashishi bosimni hosil bo'lishiga sabab bo`ladi. *Ideal gaz*. Agar gaz molekulalarining o'zaro tortishish kuchlarini va molekulalarning hajmini e'tiborga olinmasa, u holda hajm bosim va temperatura o'rtasidagi bog`lanishni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:  $PV=nRT$ . Bu tenglamani ideal gazlar uchun Klapeyron-Mendeleev tenglamasi deyiladi. R-uneversal gaz doimiyligi. n-gazni kilomoli.

**Real gaz.** Real gaz ustida gap baror ekan, gazni tashkil qiluvchi molekulalarning o'zaro tortishish kuchlarini va molekulani hajmini e'tiborga olish zarur.O'zaro tortishish kuchlar shu gazning egallab turgan hajmning kvadratiga teskari proportionaldir va uni Van-der-Vaals «a» harfi bilan belgilangan. Molekulalararo tortishish kuchi gazning siqilishiga olib keladi va buning natijasida gazning bosimini miqdorida oshiradi. Shuning uchun «V» hajmdagi real gazning bosimi ga tengdir. «a» gaz moddaning tabiatiga bog`liq. Bundan tashqari, gazni tashkil qiluvchi molekulalarning hajmini ham e'tiborga olish zarur, chunki real gaz molekulalari ma'lum hajmga ega. Shuning uchun gaz molekulalari «V» hajmda harakatlanmay, balki V-b hajmda harakatlanadi. Yuqorida aytilganlarni nazarda tutib, real gazlar uchun tenglamani quyidagicha yozish mumkin: . Bu tenglamani Van-der-Vaals tenglamasi deyiladi.

**Moddalarning kristall va amorf xolatlari.** Qattiq moddalar oddiy sharoitda kristall va amorf holatda bo`ladilar. Kristall moddalar qat'iy muayyan temperaturada suyuqlanadilar. Amorf holatdagi moddalarning aniq suyuqlanish nuqtasi yo'q; ular qizdirilganda asta sekin yumshaydi va suyuq yoki qovushqoq oquvchan holatga o'tadi. Amorf moddalarning ichki tuzilishi molekulalarining tartibsiz joylashganligi bilan kristall moddalardan farqlanadi. Moddalarning kristall holatida kristallni tashkil etuvchi zarrachalar (atom, molekula, ion) fazoda ma'lum tartibda joylashadi va ular kristall panjara, ya'ni fazoviy panjara hosil qiladi. Kristallda zarrachalarning joylashishi markazlari panjaraning tugunchalarida bo`ladi. Zarrachalar fazoda ma'lum tartibda joylashganligi tufayli ayrim moddalarning kristallari (monokristallar) ma'lum geometrik shaklni hosil qiladilar. Anizotropiya, ya'ni turli yo'naliшlarda xossalaringning (issiqlik o'tkazuchanligi, elektr o'tkazuchanligi, mexanik puxtaligi va boshqalar) bir xil bo'lmasligi kristallar uchun xos hususiyatdir. Kimyoviy tarkibi bir xil bo'lib kristall panjara tuzilishi har xil bo`lsa, polimorfizm hodisasi vujudga keladi. Bunday moddalar polimorf modifikatsiyalar deyiladi: olmos bilan grafit uglerodning polimorf modifikatsiyalari deyiladi. Kristall moddalarda izomorfizm hodisasi ham uchraydi. Agar kristall panjara tuzilishi bir xil bo'lib, kristall panjaralar tugunchalaridagi atom, ionlar har xil bo`lsa, izomorfizm hodisasi vujudga keladi. Kristallarning hammasini asosan 7 ta sistemaga bo'lish mumkin.

Har qanday kristall panjaraning muayyan qismi shu kristallda qonuniy ravishda takrorlanadi; bu qism kristallning elementar (katakchasi) yacheyska deyiladi. Ana shu elementar yacheykani xarakaterlovchi parametrlari a,b,c dir. a,b,c-elementar katakcha tugunchalarida joylashgan zarrachalar (atom, ion, molekula) markazlari orasidagi eng qisqa masofani bildiradi. (14 rasm).  $\alpha$ ,  $\beta$ ,  $\gamma$  - esa katakcha tugunchalarida eng yaqin joylashgan zarrachalarni markazlarini birlashtiruvchi to'g'ri chiziqlar orasidagi burchakni belgilaydi.

Kristall panjara tugunchalaridagi zarrachalarning turiga qarab, panjaralar to'rt turga bo'linadi:



1) ionli, 2) atomli, 3) molekulalni, 4) metall kristall panjaralarga bo'linadi.

Bir turdag'i moddaning kimyoviy tarkibi va (yoki) tuzilish jihatidan farq qiladigan 2-turdagi moddaga aylanish jarayoniga kimyoviy reakstiyalar deyiladi. Demak, kimyoviy reakstiya moddani aylanishi sodir bo'ladi jarayon, bunda yangi xossaga ega bo'lgan yangi birikma hosil bo'ladi. Reakstiyaga kirishayotgan moddalarga dastlabki moddalar deyiladi. Reakstiya natijasida hosil bo'ladi yangi birikmalarga reakstiya mahsulotlari deyiladi. Reakstiyada ishtirok etayotgan hamma moddalarga reakstiyaga kiri shuvchi moddalar deyiladi.

Kimyoviy reakstiyaning mohiyati quyidagicha: atomlar va ionlar qayta taqsimlanadi yoki bu zarrachalarning almashinishi sodir bo'ladi, kimyoviy bog` qayta tuziladi (uzilish va kimyoviy bog`ning o'zgarishi, hosil bo'lishi), bunda odatda elektronlarning qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi, energiya o'zgaradi (alohida moddalarning energiyalarining o'zgarishi sodir bo'ladi). Reakstiyalar ularda ishtirok etayotgan moddalarning stexiometrik nisbati, boshqa moddalarga aylanish darajasi, tezlik va muvozanat konstantalari, aktivlanish energiyalari, issiqlik effekti va h.k.zolar bilan ifodalanadi.

**Kimyoviy reakstiyalarning o'tish sharoitlari.** Kimyoviy reakstiyalarning o'tish sharoti quyidagi parametrlar bilan tavsiflanadi: temperatura, bosim, konstantrastiya. Parametrlar ayni sharoitda moddaning xossasini ko'rsatadi. Agar dastlabki moddalar ma'lum holatlarda bo'lsa, kimyoviy reakstiyani amalga oshirish mumkin deyiladi. Hamma hollarda kimyoviy reakstiyalarning amalga oshishi uchun reakstiyaga kirishuvchi moddalar orasida tig`iz kontaktning mavjudligi hamda ularning zarrachalarining to'qnashishlari uchun katta yuza zarurdir.

Ushbu parametrlarning ma'nosi: temperatura ortganda hamma zarrachalarning o'rtacha kinetik energiyalari ortadi, bosim ortganda bosim

$$P = \frac{F}{S}$$

kuchining yuza birligi S bo'lgan qiymati ortadi, konstantrastiya ortsasida hamma massadagi, hajmdagi yoki modda miqdoridagi ayni moddaning ulushi (massasi, hajmi yoki modda miqdori) ortadi. Bu parametrlarning ortishi kimyoviy reakstiyani amalga oshishi uchun qulay sharoit tug'diradi.


**Kimyoviy tenglama** – kimyoviy reakstiyalarni formulalar yordamida ifodalanishidir. Yoki kimyoviy tenglamalar, kimyoviy reakstiyalarning kimyoviy formulalar va son koeffisientlari yordamidagi ifodasidir.

**Reakstiyaning kimyoviy tenglamasi** – bu sodir bo'lgan sifat va miqdor o'zgarishlaridan tasavvur beruvchi jarayonni yozish usulidir. Kimyoviy tenglamaning chap tomoniga dastlabki moddalar formulasi, o'ng tomoniga reakstiyadan keyingi mahsulotlar formulasi yoziladi. Formula oldidagi koeffisient shunday tanlanadiki, natijada har bir element atomlari yig'indisi tenglamaning chap va o'ng tomonida bir xilda (teng) bo'ladi.

Masalan,



Bu yozuv quyidagi axborotlarni beradi: oltingurgut (VI) oksidi suv bilan birikib sulfat kislotani beradi. 1 mol oltingurgut (VI) oksidi 1 mol suv bilan birikib 1 mol sulfat kislota hosil qiladi. 80 g SO<sub>3</sub> 18 g suv bilan ta'sirlashib 98 g sulfat kislota hosil qiladi. Kimyoviy tenglama massalar ta'siri qonuni asosida tuziladi: reakstiya tenglamasi yozilganda tenglamaga qo'yiladigan koeffistientlar eng kichik butun sonlar bo'lishi kerak. Reakstiya tenglamalarini ikki xil usulda yoziladi: -empirik formulalar yordamida:



### Fizikaviy va kimyoviy hodisalar.


Vaqt o'tishi bilan moddalarda sodir bo'ladigan har qanday o'zgarishlarga hodisalar deyiladi. Shakllari, o'lchamlari, agregat holati, moddaning fazodagi holati yoki yadro tarkibining o'zgarishi hisobiga yangi moddaning hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladigan hodisalarga fizikaviy hodisalar deyiladi.

Fizikaviy hodisalarda moddalarning tarkibi o'zgarishsiz qoladi. Muzning erishi, suvning qaynab bug`ga aylanishi yoki suvning muzlashi fizikaviy hodisalardir, chunki bunda suvning tarkibi o'zgarmaydi, agregat holati o'zgaradi xolos. Shisha qizdirilganda suyuqlanadi, lekin shishaligicha qoladi. Qog'ozni har qancha maydalamaylik, u boshqa moddaga aylanmaydi, shakli o'zgaradi xolos. Fizikaviy hodisalarga: qizdirish – sovutish; bug`latish - kondensastiyalanish; suyuqlanish – kristallanish; maydalanish; yadro reakstiyalari; elektr toki; mexanik harakat va h.k.lar misol bo'ladi. Fizikaviy hodisalardan turmushda keng foydalaniladi. Masalan, sutdan sariyog` olish, sanoatda ma'danlardan keraksiz moddalarni ajratish, sanoatda suv bug`i ener giyasidan foydalanish, yirik toshlardan mayda shag`al va qum tayyorlash, katta-katta marmar toshlardan marmar plitalari, marmar qumlarini tayyorlash fizikaviy o'zgarishlarning amaliy tatbig`idir.

Tabiatda shunday hodisalar sodir bo'ladiki, unda moddaning tarkibi va xossasi butunlay o'zgarib ketadi. Temirdan yasalgan buyumlar nam havoda zanglaydi, sut achiganda tarkibidagi moddalar o'zgaradi, sham yonganda alanga hosil bo'ladi, issiqlik ajraladi, SO<sub>2</sub> va suv bug`lari hosil bo'ladi va h.k.zo. Bunday hodisalar fizikaviy hodisalardan farqli kimyoviy hodisalardir. Bir moddaning boshqa bir moddaga aylanishi natijasida, dastlabki moddalar tarkibi, tuzilishi va xossalari bilan farq qiladigan hodisalar kimyoviy hodisalar deyiladi. Kimyoviy hodisalar natijasida, albatta moddalarning tarkiblarini o'zgarishi va yangi moddalarning hosil bo'lishi sodir bo'ladi. Shu sababli har qanday kimyoviy hodisani kimyoviy reakstiya yoki har qanday kimyoviy reakstiyani kimyoviy hodisa deyish mumkin. Kimyoviy hodisalarga: -oksidlanish; -yonish; -chirish; -zanglash; -achish; -izomerlanishlar misol bo'ladi. Kimyoviy hodisalardan (kimyoviy reakstiyalardan) amaliy faoliya timizda juda ko'p foydalanamiz: sanoatda rudalardan metallarni ajratib olish, mineral o'g'itlar, turli xil kimyoviy reakstiyalar olish, doridarmonalr sintez qilish, sanoat korxonalari va uylarni qattiq, suyuq yoki gaz yoqilg`ilar hisobiga isitishda, domna jarayonida temir rudalardan cho'yan olish va h.k.lar kimyoviy hodisalar yoki kimyoviy reakstiyalarga asoslangan.

### Kimyoviy reakstiyalarning belgilari.

Biror hodisaning haqiqatan ham kimyoviy hodisa yoki kimyoviy reakstiya ekanligini quyidagi xarakterli belgilari bo'yicha aniqlanadi: - cho'kma hosil bo'lishi:




Bu belgilari reakstiya sodir bo'lganligini bildiruvchi tashqi alomatlardir. Kimyoviy reakstiyalarning klassifikastiyalari. Kimyoviy reakstiyalarning soni cheksizdir.

Kimyoviy reakstiyalarni u yoki bu tipga (turga) mansubligini aniqlash oson bo'lishi uchun ularni turli belgilari bo'yicha klassifikastiyalanadi. Dastlabki moddalar bilan sodir bo'ladigan o'zgarishlar va reakstiya mahsulotlari soni hamda tarkibi bo'yicha hamma reakstiyalar birikish, ajralish, o'rinn olish va almashinish reakstiyalariga bo'linadilar.





**Birikish reaksiyasi** – ikki yoki bir necha moddalardan bitta yangi modda hosil bo'lish reakstiyasidir: bunda reakstiyaga oddiy moddalar yoki murakkab moddalar kirishishi mumkin; Masalan,







**Ajralish reaksiyasi** – bitta murakkab moddadan ikki yoki bir nechta yangi moddalar hosil bo'lish reakstiyasidir.




**O’rin olish reaksiyasi** – bu oddiy modda murakkab modda bilan ta’sirlashib, reakstiya natijasida murakkab modda molekulasi dagi birorta element atomining o’rnini olish natijasida yangi oddiy va yangi murakkab moddalar hosil bo’lish reakstiyasidir.




**Almashinish reaksiyasi** – bu ikkita murakkab moddalar o’zaro ta’sirlashib, tarkibiy qismlarini almashinishi natijasida ikkita yangi murakkab modda hosil bo’lish reakstiyasidir.




Boshqa turli turdag'i klassifikastiyalar ham mavjud. Ta'sirlasha yotgan moddalardagi elementlarning oksidlanish darajalarining o'zgarishi bo'yicha hamma reakstiyalar ikkiga bo'linadi:  
-elementlarning oksidlanish darajalarini o'zgarishisiz boradigan reakstiyalar:



-elementlarning oksidlanish darajalarini o'zgarishi bilan boradigan reakstiyalar:




Bu tipdag'i reakstiyalarga oksidlanish-qaytarilish reakstiyalari deyiladi. O'z navbatida oksidlanish-qaytarilish reakstiyalari ham bir qancha tiplarga bo'linadilar. Qaytarlik belgisi bo'yicha ham hamma reakstiyalar qaytar va qaytmas reakstiyalarga bo'linadi. Bir vaqtning o'zida ham to'g'ri, ham teskari tomonga boradigan reakstiyalarga qaytar reakstiyalar deyiladi.




Reakstiya uchun olingan moddalarning hammasi batomom reakstiya mahsulotiga aylanishi bilan boradigan reakstiyalarga qaytmas reakstiya lar deyiladi. Bunday reakstiyalar cho'kma tushishi, gaz ajralib chiqishi va kam dissostiyalanadigan maxsulotlar hosil bo'lishi bilan boradi.



Qaytar reakstiyalar oxirigacha bormaydi, qaytmas reakstiyalar esa bir yo'nalishda va amalda oxirigacha boradi. Issiqlik effektlari bo'yicha ham reakstiyalar ekzotermik va endotermik reakstiyalarga bo'linadi. Issiqlik chiqishi bilan boradigan ( $\Delta H < 0$ ,  $Q > 0$ ) reakstiyalarga ekzotermik reakstiyalar deyiladi.




Issiqlik yutilishi bilan boradigan reakstiyalarga ( $\Delta H > 0$ ,  $Q < 0$ ) endotermik reakstiyalar deyiladi.




Aksariyat ko'pchilik birikish reakstiyalari ekzotermik bo'lsa, ajralish reakstiyalari endotermikdir. Reakstiyada ajralib chiqqan yoki yutilgan issiqlik miqdorini ko'rsatib yozilgan reakstiya tenglamalari termokimyoiy tenglamalar deyiladi. Reakstiyaga kirishayotgan moddalarning agregat holatlari bo'yicha hamma reakstiyalar gomogen va geterogen reakstiyalarga bo'linadi. Reakstiya uchun olingan va reakstiya mahsulotlari bir xil agregat holda bo'lsa, gomogen reakstiyalar deyiladi. Bunday sistemalarda sirt chegaralanish bo'lmaydi, zarrachalar bir-biridan ajratilgan emas, ular butun birlikdan iborat.




Reakstiyaga kirishayotgan moddalar va reakstiya mahsulotlari har xil agregat holatda bo'lsa, geterogen reakstiyalar deyiladi. Bularda ta'sir lashayotgan moddalar yuza sirtlar bilan chegaralangan bo'ladi:



Reakstiyada katalizator ishtirok etish yoki etmasligi bo'yicha ham hamma reakstiyalar katalitik va katalizatorsiz reakstiyalarga bo'linadi:




katalitik reakstiya



katalizatorsiz reakstiya

Har bir kimyoviy reakstiya bir necha belgilari bo'yicha tavsiflanishi mumkin. Masalan, quyidagi reakstiya:



birikish; endotermik; gomogen; katalitik; oksidlanish-qaytarilish; qaytar. Yuqorida ko'rib chiqqan klassifikastiyalardan tashqari boshqacha klassifikastiyalar ham mavjud, ular bilan kimyoni chuqr o'rganish jarayonida tanishiladi.

### Reakstiya unumi yoki mahsulot unumi.

Amalda hamma kimyoviy reakstiyalarda olingan reakstiya mahsulotlari massasi, dastlabki moddalar massalariga teng bo'lmaydi. Uskunalar va texnologik jarayonlarning mukammal emasligi, tajribani bajaruvchining o'ta mohir emasligi natijalarida reakstiya mahsulotlari miqdori hamisha tenglamalar bo'yicha hisoblangandagidan kam bo'ladi. Shu bilan bog'liq holda reakstiya unumi yoki mahsulot unumi degan kattalik kiritilgan. Mahsulot unumi – amalda olingan mahsulot massa, miqdor yoki hajmda, reakstiya tenglamasi bo'yicha hisoblangan (nazariy mumkin bo'lgan) massa, miqdor yoki hajmning qanday qismini tashkil qilishini ko'rsatadigan kattalikka aytildi. Mahsulot unumi odatda birning qanday ulushida yoki foizlarda (%) ifodalanadi va  $\eta$  bilan belgilanadi:

$$\eta = \frac{m_{\text{амал}}}{m_{\text{наэ}}} ; \quad \eta = \frac{V_{\text{амал}}}{V_{\text{наэ}}} ; \quad \eta = \frac{\vartheta_{\text{амал}}}{\vartheta_{\text{наэ}}} ;$$


Foizlarda ifodalanganda topilgan qiymat 100 ga ko'paytililadi yoki tenglamaga 100 qo'yiladi. Masalan biror reakstiyada mahsulot unumi 0,75 (75%) ga teng bo'lsa, bu reakstiyada 0,25 (25%) mahsulot yo'qolganini anglatadi.

### Oksidlanish - qaytarilish reakstiyalari Oksidlanish–qaytarilish reakstiyalarining turlari. Oksidlovchilar va qaytaruvchilar.

Atom tuzilishi nuqtai-nazaridan barcha kimyoviy reakstiyalarni turga bo'lish mumkin:


1. Reakstiya natijasida elektronlar bir atomdan boshqasiga o'tmaganligi yoki elektronlar jufti siljimaganligi uchun, reakstiyaga kirishuvchi moddalarning tarkibidagi elementlarning oksidlanish darajalari o'zgarmasdan boradigan reakstiyalar.

Masalan:  $H_2SO_4 + 2NaOH = Na_2SO_4 + 2H_2O$



Ushbu reakstiyalarda ishtirok etayotgan moddalarda birorta ham elementning oksidlanish darajalari o'zgarmagan.

2. Reakstiya jarayonida elektronlar bir atomdan boshqasiga o'tishi yoki elektron juftlarining siljishi natijasida reakstiyaga kirishuvchi moddalarning tarkibidagi elementlarning oksidlanish darajalari o'zgarishi bilan boradigan reakstiyalar.



Ikkinci tipdagи reakstiyalarga yoki reakstiyaga kirishayotgan molekulalar tarkibiga kirdigan elementlarning oksidlanish darajalarini o'zgarishi bilan boradigan reakstiyalarga oksidlanish-qaytarilish rekstiyalari deyiladi. Kimyoviy reakstiyalar orasida oksidlanish-qaytarilish reakstiyalari eng ko'p tarqalgan reakstiyalar qatoriga kiradi.

Nafas olish, fotosintez, modda almashinish va qator biologic hamda kimyoviy jarayonlar asosida oksidlanish-qaytarilish reakstiyalari yotadi. Sanoatda oksidlanish-qaytarilish reakstiyalarining ahamiyati juda katta. Hamma metallurgiya sanoati oksidlanish-qaytarilish reakstiyalariga asoslangan bo'lib, ularning borishida tabiiy birikmalardan metallar ajratib olinadi. Oksidlanish-qaytarilish reakstiyalarining nazariyalariga tegishli asosiy hollarni ko'raylik.

*Savol va topshiriqlar.*

1. Ideal gaz holatini ta'riflang va Klapeyron-Mendeleev tenglamasini yozing.
2. Real gaz holatini ta'riflang va Van-der-Vaals tenglamasini yozing.
3. Real gazning suyuqlanish ( $\text{SO}_2$ ) izotermasini chizing
4. Gazning kritiq temperatura nuqtasi deb nimaga aytildi?
5. Moddaning amorf holatini ta'rifini bering.
6. Moddaning kristall holatini ta'riflab bering.
7. Ionli, atomli va molekulyar kristall panjaralar bir-biridan nima bilan farqlanadi. 8. Amorf va kristall moddalar suyuqlanish temperaturasida nima bilan farqlanadi?